

**SOXTA AXBOROT VA MEDIASAVODXONLIK**

Qo`qon davlat universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Shokirova Bibirobiya Mansurxon qizi

Annotatsiya: Maqolada soxta axborotning mohiyati uning jamiyatga ta`siri hamda mediasavodxonlikning ahamiyati yoritiladi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish zarurati, O`zbekistonda mediasavodxonlikni rivojlantirish bo`yicha tashabbuslar va feyk xabarlarini aniqlash usullari qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Soxta axborot, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, manipulyatsiya.

Hozirgi axborot asrida insonlar hayoti, tafakkuri va qabul qilish jarayonlari ommaviy axborot vositalari orqali shakllanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va onlayn nashrlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga axborot oqimining tezligi ortib borar ekan, haqiqat bilan yolg`onni ajratish tobora murakkablashmoqda. Mediasavodxonlikning shakllanishi nafaqat shaxsiy hayotda, balki davlat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va ma`naviy rivojlanishda ham muhim o`rin egallaydi.

Soxta axborotning oldini olish, axborot oqimini tahlil qilish va haqiqiy manbalarni ajratib olish ko`nikmalari bugungi kunning talabiga aylangan. Mazkur maqolada soxta axborotning mohiyati, uning tarqalish mexanizmlari hamda mediasavodxonlikning ijtimoiy ahamiyati ilmiy yondashuv asosida yoritib beriladi.

Soxta axborot — bu ataylab haqiqatni buzib ko`rsatish, noto`g`ri ma`lumotlarni tarqatish yoki odamlar fikriga ta`sir ko`rsatish maqsadida yaratilgan yolg`on ma`lumotlar majmuasidir. Dunyo bo`yicha feyk xabarlar so`nggi o`n yillikda keskin ko`paygan bo`lib, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladi. Soxta axborot quyidagi asosiy ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Feyk xabarlar:



Ataylab uydirilgan, haqiqatga mos kelmaydigan, odamlarni adashtirishga qaratilgan riallar.

Manipulyativ sarlavhalar.

Mazmatemuni boshqacha bo'lsa-da, jozibali sarlavhalar orqali odamlarni xabarni ochishga majbur qilish. Kontekstdan uzib olingan foto va videolar Qandaydir voqea yoki shaxsga bog'lab, aslida boshqa manzara bo'lgan materiallarni noqonuniy talqin qilish. Montaj qilingan kontent.

Texnik vositalar yordamida o'zgartirilgan, lekin realdek ko'rinadigan foto yoki videolar.

Propaganda va dezinformatsiya kampaniyalari muayyan siyosiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy manfaat yo'lida keng ko'lamda tarqatiladigan tizimli yolg'on axborotlar. Soxta axborotning ushbu turlari odamlarning qarashiga, tanloviga va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, soxta axborotning keng tarqalishi raqamli jamiyatning dolzarb muammosiga aylandi. Feyklar nafaqat shaxsiy qarashga, balki butun jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mediasavodxonlik esa bunday xavflarni kamaytiruvchi asosiy vositadir. Har bir fuqaro axborotni tanqidiy baholash, manbani tekshirish va manipulyativ materiallarni farqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Faqat shundagina jamiyatda axborot xavfsizligi, ongli axborot iste'moli va barqaror ijtimoiy muhit shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fedorov A. Media manipulation and Media literacy education. Moscow 2022.
2. Nicols. „The Ethics of Manipulation``. Stanford Encyclopedia of Philosophy. Stanford University.

<https://uz.m.wikipedia.org/>

<https://www.unicef.org/end-violence/how-to-stop-cyberbullying>